International Conference on
Linguistics, Literature And Translation

International Conference on Linguistics, Literature And Translation - double-blind peer-reviewed, monthly, open-access procedding published to get ecxellence on Research and Development. It publishes high-quality articles across the breadth of linguistics, literature and translation research. With its uniquely broad coverage, all articles are free to access across the globe, allowing authors to share their research and maximise its impact. The boletin on Linguistics, Literature And Translation is led by expert international editorial board members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed and evaluated on its own scholarly merits and research integrity. Joining your work in the International Conference of Linguistics, Literature, and Translation means you will receive prompt and reliable publishing and a global platform for your research to reach its full potential.

SO‘Z TURKUMLARI TASNIFI HAQIDA

Erbutayeva Shalola Utkirovna
O‘Qituvchi, assistent, Samarqand davlat pedagogika instituti, O‘zbekiston, Samarqand

Annotatsiya

Ushbu maqolada dunyo va o‘zbek tilshunosligida mavjud so‘z turkumlarining tasnifi, tadqiq etilgan. Turkumlash nazariyalari va ularning ilmiy asoslari tahlilga tortilgan. O‘zbek tilshunosligida mavjud turkumlash tamoyillari zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan guruhlangan.

Kalit so‘zlar: til, jamiyat, arxaik, paradigma, ismlar, fe’llar, turkumlash masalasi, nãmãn), fe’l (ãkhuatã), old ko‘makchi (upurãsagrã) va yuklama (kiratã).

Kirish. Til – eng avvalo, insonning ichki dunyosi, olamni idrok qilishi, tafakkur tarzi va kamolotini belgilaydigan vosita. Til nima vazifani bajaradi? – degan savolga ko‘p hollarda uning aloqa vositasi ekanligi aytiladi. Biroq, bu fikr tilning haqiqiy mohiyatini noto‘g‘ri tushunishdan kelib chiqadi. Aslida, til faqat aloqa qilish uchun emas, balki u insonning tafakkur tarzini tayin qiladigan, dunyoni bilish, ko‘rish, eshitish vositasi hamdir.[1] Dastlab, til faqatgina muloqot vositasi sifatida qaralgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan uning roli ancha kengayib, inson tafakkuri, bilim darajasi va ongiga ta’sir ko‘rsatadigan murakkab hodisaga aylangan. Bugungi kunda til faqat muloqotning oddiy vositasi bo‘lib qolmay, balki o‘ziga xos ilmiy tadqiqot maydoniga aylangan. Tilshunoslikdagi ilmiy izlanishlar evaziga yangidan yangi yo‘nalishlarning paydo bo‘lishi, ijtimoiy hayot bilan bog‘liq holda rivojlanishlar ko‘zga tashlanmoqda. Tilning ilmiy jihatdan tadqiq etilishi esa uni yanada chuqurroq tushunishga yordam bermoqda. Albatta, har bir til o‘zining ichki qonuniyatlariga muvofiq rivojlanib boradi. Masalan, yangi so‘zlar, ya’ni neologizmlar, tildagi leksik qatlamlar asosida paydo bo‘lishi tabiiy jarayon bo‘lsa, shu bilan birga, arxaik (eskirgan) so‘zlar nutqdagi faolligini yo‘qotadi. Bu o‘zgarishlar, ijtimoiy jarayonlarga bog‘liq holda, tildagi leksikaning davriy ravishda o‘zgarishiga olib keladi. Boshqacha aytganda, so‘zlar turli davrlarda, sharoitlarda o‘z guruhlariga kirib yoki chiqib turadi va bu jarayon hech kimga sir emas.

Tildagi yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi til leksik boyligining oshishida, grammatik

[1] Mahmudov N. Zarif so‘z ziyorati. – Toshkent: Tubo nashr, 2023. – B.23.

strukturasining takomillashishida muhim o‘ringa egadir. Aloqa-munosabat vositasi sifatida mavjud bo‘lgan, hayotiylik mezoniga ega til rivojlanish bosqichida ma’lum to‘siqlarga duch keladi. Tilshunos olimlar mana shunday to‘siqlarni bartaraf etish uchun tillarni o‘zaro solishtirishadi, ularning farqli va o‘xshash jihatlarini tahlil etishadi. Tilni chuqur tadqiq etish uchun o‘sha tilda mavjud bo‘lgan fonetik, leksik qatlam birliklarini semantik-struktur jihatdan alohida guruhlarga ajratib olingani, bu jarayon dastavval hind tilshunosligida yuzaga kelgani, bizning ajdodlarimiz ham yunon tilshunosligiga tayangan holda tillarni tasnif etishgani haqida ma’lumotlar bor.

Tilday murakkab hodisani mukammal o‘rganishning eng samarali yo‘llarini butun dunyo ilm ahli tomonidan izlanishi g‘oyat ijobiy va ezgu harakatlardir. Tabiiyki, bu hodisani faqat bir paradigma yoki yo‘nalish doirasidagina o‘rganish bilan uning mohiyatiga yetish mushkul.[2] Shu bugungi kunga qadar til o‘z evolyutsiyasi jarayonida taraqqiy etish bilan birga ma’lum ma’noda turg‘unlashdi. XXI asrning eng muhim yutuqlari, shubhasiz, ravishda ilmiy-texnikaviy taraqqiyot bilan bog‘liqdir. Buning asosiy sababi esa sun’iy intellekt bilan bog‘liq edi. Shunday ekan, ko‘plab sohalarda bo‘lgani kabi, tilshunoslikda ham milliy tilga yangi nazar bilan qarashni taqozo etmoqda. Avvalgi davrda til qurilishi va nutqiy faoliyatning mahsuli sifatida ko‘rilgan matnlar, asosan, filologik nuqtayi nazardan o‘rganilardi. Bugungi kunda esa matnni bilish, tushunish, tahlil qilish va idrok qilish kabi tushunchalar ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishiga aylandi. Bu esa tilshunoslikni yanada chuqurroq va kengroq tahlil qilish imkonini yaratmoqda.

Ma’lumki, XIX asr oxiri XX asr boshlarida o‘zbek tilshunosligida rus olimlari tahlillariga asoslangan tadqiqotlar ko‘zga tashlana boshladi. Jumladan, tilshunos O.Azizov “…har bir tildagi so‘zlar grammatik belgisi va semantik xususiyatiga qarab turli guruhlarga bo‘linadi. Grammatik qurilish jihatidan har xil bo‘lgan tillardagi so‘zlarning semantik xususiyatlari qo‘llanish doirasi, grammatik belgilari, o‘zaro birikishi doim ham o‘xshash bo‘lavermaydi”[3], - degan fikrlarni keltiradi.

Til o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘lib, uning bir qancha sathlari mavjud. Shu sathlardan biri grammatik sathdir. Grammatika o‘z ichida morfologiya va sintaksisga bo‘linadi. Morfologiya, grammatikaning tarkibiy qismi sifatida, so‘zlarning tuzilishini, ularning turkumlarini va grammatik shakllarini o‘rganadi. Demak, so‘zlarning turkumlarga ajratilishi va ularning grammatik ma’nolarini qanday namoyon qilishini yoritadi.

Til tizimini morfologik jihatdan tadqiq etish ancha uzoq tarixga borib taqaladi. Qadimgi yunon tilshunosligida so‘z turkumlari masalasi ancha mukammal o‘rganilgan bo‘lib, o‘z davri uchun ahamiyatli bo‘lgan qarashlar negizida ilk ilmiy mezonlar shakllangan. Jumladan, Sharq tilshunosligi yunon tilshunosligidan birmuncha farq qiladi, lekin bu farq juda katta emas, umumiy o‘xshash tomonlari ham mavjud. Antik davr tilshunoslarining so‘z turkumlari masalasiga alohida qiziqish bilan qaraganligi va ular ishlab chiqqan tamoyillar hozirga qadar u yoki bu shaklda saqlanib kelayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Inson hayotini yaxshilash va qulaylashtirishga doimiy ravishda intilish, faqat ijtimoiy hayotda emas, balki ilmiy tadqiqotlarda ham o‘z aksini topgan. So‘zlarni yig‘ish va tasniflash jarayonida ham bu tamoyil asosiy me’yor sifatida qo‘llaniladi, ya’ni so‘zlar turkumlarga ajratishdagi asosiy tamoyil ham inson hayotini tartibga solish va tizimlashtirishga qaratilgan.

Tilshunoslik eng qadimgi davrlaridanoq o‘rganilgan va umumiy fanlar ichidan ajralgan fan sifatida qaraladi. Dastlabki davrlardan so‘zlarning u yoki bu jihatlarini tasnif qilish, ularni umumiylik jihatdan guruhlash masalasiga e’tibor qaratilgan: “…so‘z turkumlari tasnifi tilshunoslikning asosiy o‘rganish obyekti bo‘lib kelgan”[4]. Aflotun so‘zlarni ikki guruhga ajratgan: ism va fe’l. U o‘z tasnifida mantiqiy tushunchalarga asoslanadi. Uning fikriga ko‘ra, voqelikni

[2] Маҳмудов Н. Зариф сўз зиёрати. – Тошкент: ТУБО нашр, 2023. – Б.90.
[3]Азизов О. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўкитувчи, 1996. – Б. 176.
[4] Венцкович Р. М., Шайкевич А. Я. История языкознания. ч. I. – Москва: 1971. – С. 10 и далее. Античные теории языка и стиля. – Москва: Ленинград., 1936. – С.121. Звегинцев В. А. История арабского языкознания. – Москва: МГУ, 1958. – С. 5-7.

ifodalashda ism va fe’l muhim o‘rin tutadi. Ismlar – bu nomlash mumkin bo‘lgan so‘zlar, fe’llar esa harakatni ifodalovchi so‘zlardir. Nutqimizni shakllantirishda ismlar yoki fe’llar kabi til birliklari birgalikda ishlatiladi. Biroq, faqat bitta turkumdagi so‘zlar orqali nutq to‘la ifodalanmaydi, chunki nutq to‘liq va ma’noli shakllanishi uchun turli turkumdagi birliklar o‘zaro bog‘lanishi kerak.

So‘zlarni turkumlashga oid keyingi fikrlar egasi Arastudir. Uning qarashlariga ko‘ra, ism va fe’ldan tashqari bog‘lama ham mavjud bo‘lib, ular ism va fe’lni bog‘lash uchun ko‘mak beradi.

Keyingi davr, ya’ni Aleksandriya davriga kelib so‘z turkumlari nazariyasi takomillasha bordi, endi uning lisoniy xususiyatlariga e’tibor kuchaydi.

Frakiyalik Dionisiy so‘zlarni: ot, fe’l, sifatdosh, artikl, ravish, ko‘makchi va bog‘lovchiga; Eli Donat esa ot, olmosh, fe’l, ravish, sifatdosh, bog‘lovchi, ko‘makchi, undovlarga ajratadi[5]. Turkumlash mezonlari ham ilmiy asosda shakllanib bordi. Ayni vaqtda so‘z turkumlari miqdor jihatdan ko‘paydi.

Yunonlardan keyin rimliklar ham so‘z turkumlari masalasiga jiddiy e’tibor qaratishgan. Xususan, M.Varron so‘zlarni 4 turkum ostida birlashtirdi, uningcha, turlanish va turlanmaslik turkumlash uchun asos bo‘lishi kerak edi, ayni shu jihatlarini e’tiborga olgan holda kelishik shakllarini qabul qila oladigan so‘zlar – otlar; zamon ko‘rsatuvchi so‘zlar – fe’llar; kelishik va zamon ko‘rsatuvchi so‘zlar – sifatdoshlar; kelishik va zamon kategoriyasiga ega bo‘lmaganlar – yordamchi so‘zlar[6] kabi guruhladi.

Hind tilshunosligida turkumlashga oid yagona qarash yo‘qligi sababli, ushbu masalada, asosan, to‘rtta so‘z turkumiga ajratish fikriga tayanishar edi. Bular: ot (nãmãn), fe’l (ãkhuatã), old ko‘makchi (upurãsagrã) va yuklama (kiratã)[7]. Ko‘makchilar ot va fe’l so‘z turkumlarining ma’nolarini ko‘rsatib beruvchi turkum sifatida izohlangan. Qadimgi hind tilshunosligida so‘z turkumlarining 3-turi sifatida ko‘makchilar olingan bo‘lib, “*uprãsagrã”* deb atalgan.

So‘z turkumlarining o‘rganilishi olimlar tomonidan kiritilgan turli tahlil va tasniflar asosida o‘z nazariy asoslariga ega bo‘ldi, takomillashib bordi. Jumladan, jahon tilshunosligida F.Bopp, R.Rask, Y.Grimmlar so‘z turkumlarini genezesi bo‘yicha tasnif etgan. Naturalistik maktab asoschisi A.Shleyxer turkumlanish hodisasiga bobo til bilan bog‘liq jarayon hisoblanishi jihatidan yondashadi.

Sharq tilshunosligida ham so‘zlar turkumlarga ajratilgan bo‘lib, bunda antik davr tilshunosligiga oid va ayni vaqtda, farqli xususiyatlari inobatga olingan. Jumladan, arab tilshunosligida so‘z turkumlari 3 guruhga ajratilgan, bular quyidagilar: 1. Ism; 2. Fe’l; 3. Yuklama (harf). Bunda nomlovchi so‘zlar ismlar hisoblansa, harakat bildiruvchi so‘zlar fe’llar sifatida tasniflangan. Grammatik jihatdan teng yoki tobe bog‘lash vazifasini bajaruvchi so‘zlar turkumi esa harflardir.

Ilmiy adabiyotlarda ham ta’kidlanganidek, turkiy tilshunoslar arab tilshunoslari izidan borgan holda yuqoridagi tasnifni asos qilib olishadi. Arab tilshunosligi an’analariga tayangan holda Abu Nasr Forobiy “tur-jinsni bildiruvchi so‘zlarni ot, fe’l va harf”larga ajratadi[8]. Umuman olganda, “*harf”* deb nomlangan turkum doirasiga biz bugungi kunda “*yordamchi”* deb o‘rganayotgan turkum so‘zlari kiritiladi. Qomusiy olim Abu Nasr Forobiy, tilshunoslikning muhim ekanligini anglagan holda, o‘z qarashlarini bayon qiladi

Tilshunoslik fani Qoraxoniylar hukmronligi davrida ham birmuncha rivojlandi, ayni ushbu davrga kelib turkiy tillarning qiyosiy o‘rganilganligi, badiiy va ilmiy mazmundagi asarlarning ko‘plab yaratilganligi bunga dalil bo‘la oladi. Qoraxoniylar davrining nodir topilmalari sifatida qaraladigan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Mahmud Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit

[5] Античные теории языка и стиля. – Москва: Ленинград., 1936. – С. 120.
[6]Античные теории языка и стиля. – Москва: Ленинград., 1936. – С. 94–104.
[7] Звегинцев В. Очерк истории языкознания до XIX века // Хрестоматия по истории языкознания XIX веков. – М., 1956. – С. 5-7.
[8] Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 10.

turk”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq”, Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat”; bundan tashqari “Tafsir”, “O‘g‘uznoma”, “Qissasi Rabg‘uziy” asarlarni keltirishimiz mumkin.

Prof.J.Eltazarov turkologiyada turkumlanish jarayonlarining o‘rganilishini ikki katta davrga ajratadi:

I davr. XVII asrdan XX asrning 30-yillarigacha bo‘lgan davr. Bu davr so‘z turkumlarini tavsifiy o‘rganish davri deb yuritiladi.

II davr. XX asrning 30-yillaridan boshlangan davr. Bu davr so‘z turkumlarini ilmiy jihatdan o‘rganish davri[9] hisoblanadi.

Yuqorda keltirilgan tasnif asosidagi tamoyillarga asoslanilgan holda o‘zbek tilida ham so‘zlar uch guruhga ajratib o‘rganilgan: mustaqil so‘zlar, yordamchi so‘zlar va alohida olingan so‘z turkumlari.

Tilday murakkab hodisani mukammal o‘rganishning eng samarali yo‘llarini butun dunyo ilm ahli tomonidan izlanishi g‘oyat ijobiy va ezgu harakatlardir. Tabiiyki, bu hodisani faqat bir paradigma yoki yo‘nalish doirasidagina o‘rganish bilan uning mohiyatiga yetish mushkul.[10] Shu bugungi kunga qadar til o‘z evolyutsiyasi jarayonida taraqqiy etish bilan birga ma’lum ma’noda turg‘unlashdi. XXI asrning eng muhim yutuqlari, shubhasiz, ravishda ilmiy-texnikaviy taraqqiyot bilan bog‘liqdir. Buning asosiy sababi esa sun’iy intellekt bilan bog‘liq edi. Shunday ekan, ko‘plab sohalarda bo‘lgani kabi, tilshunoslikda ham milliy tilga yangi nazar bilan qarashni taqozo etmoqda. Avvalgi davrda til qurilishi va nutqiy faoliyatning mahsuli sifatida ko‘rilgan matnlar, asosan, filologik nuqtayi nazardan o‘rganilardi. Bugungi kunda esa matnni bilish, tushunish, tahlil qilish va idrok qilish kabi tushunchalar ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishiga aylandi. Bu esa tilshunoslikni yanada chuqurroq va kengroq tahlil qilish imkonini yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Античные теории языка и стиля. – Москва: Ленинград., 1936. – С. 94–104.
2. Азизов О. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўкитувчи, 1996. – Б. 176.
3. Элтазаров Ж. Сўз туркумлари ҳақидаги лингвистик назариялар. – Самарқанд: СамДУ, 1996. – Б .93.
4. Маҳмудов Н. Зариф сўз зиёрати. – Тошкент: ТУБО нашр, 2023. – Б.90.
5. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 10.
6. Звегинцев В. Очерк истории языкознания до XIX века // Хрестоматия по истории языкознания XIX веков. – М., 1956. – С. 5-7.
7. Венцкович Р. М., Шайкевич А. Я. История языкознания. ч. I. – Москва: 1971. – С. 10 и далее.

[9] Элтазаров Ж. Сўз туркумлари ҳақидаги лингвистик назариялар. – Самарқанд: СамДУ, 1996. – Б .93.
[10] Маҳмудов Н. Зариф сўз зиёрати. – Тошкент: ТУБО нашр, 2023. – Б.90.